

IXTISOSLASHTIRILGAN SAN'AT MAKTABLARI O'QUVCHILARINI KREATIV  
YONDASHUV ASOSIDA KASBIY KOMPETENSIYASINI  
TAKOMLLASHTIRSHNING PEDAGOGIK TAXLILI

Irgashev Ravshan Sobirjonovich

RISMI o'qituvchisi. Toshkent sh.

*arxitektor\_55@mail.ru*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15106342>

Zamonaviy ta'lif jarayonida o'quvchilarining ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va ularni kelajakdagi professional faoliyatga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ixtisoslashtirilgan san'at maktablari o'quvchilarining kasbiy rivojlanish jarayonida kreativ yondashuvning o'rni beqiyosdir. Ushbu tezisda san'at maktablarida kasbiy kompetensiyani shakllantirishda kreativ yondashuvning pedagogik asoslari, innovatsion metodlar va ularning samaradorligi tahlil qilinadi.

**Ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida kasbiy kompetensiyaning ahamiyati shundaki,** kasbiy kompetensiya o'quvchilarining kelajakdagi mehnat faoliyatiga tayyorgarligini belgilovchi muhim omildir. San'at va dizayn sohasida ta'lif olayotgan o'quvchilar uchun quyidagi kompetensiyalar, ijodiy tafakkur va san'at asarlarini mustaqil tahlil qilish qobiliyati, estetik did va vizual idrokni rivojlantirish, amaliy ko'nikmalar va texnik mahorat, innovatsion yechimlar yaratish va dizayn jarayonlarini boshqarish muhim hisoblanadi. Bu kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida kreativ yondashuv asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Kreativlik va kasbiy kompetensiya tushunchalari zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda keng o'r ganilgan. Kreativ yondashuvning ta'lif jarayoniga tatbiq etilishi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- O'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirish;
- Innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish;
- O'quvchilarining qiziqishlari va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- Amaliy va nazariy bilimlarni uyg'unlashtirish.

San'at maktablarida kreativ yondashuvni tatbiq etishda o'quvchilar mustaqil yoki jamoaviy ravishda ijodiy loyihalarni amalga oshirish, o'quvchilarga aniq bir muammo qo'yilib, uning ijodiy yechimlarini ishlab chiqish, guruhli munozaralar, rolli o'yinlar, vizual san'at tahlillari orqali va grafik dizayn dasturlari, 3D modellashtirish va virtual reallik vositalari yordamida o'quvchilarining ijodiy tafakkuri rivojlantiriladi.

San'at muktabalarida kreativ yondashuvning samaradorligini baholash uchun eksperimental tadqiqot o'tkazildi. Tadqiqot davomida o'quvchilar ikkita guruhga ajratildi: an'anaviy metodlar asosida ta'lif olganlar va kreativ yondashuv asosida ta'lif olganlar. Natijalarga ko'ra, kreativ yondashuv qo'llanilgan guruh o'quvchilarining mustaqil ijodiy fikrlash darajasi 30% ga oshgan, kasbiy kompetensiyalari shakllanishi 25% ga yaxshilangan va loyihamiyyati amaliy ishlarni bajarish sifati 35% ga ortgan. Bu esa kreativ yondashuvning san'at muktabalarida samaradorligini tasdiqlaydi.



O'zbekiston Badiiy akademiyasi tasarrufidagi Respublika ixtisoslashtirilgan san'at muktab-internati ning 5-v sinf o'quvchilari

### Xulosa va tavsiyalar

Kreativ yondashuv asosida kasbiy kompetensiyani shakllantirish ixtisoslashtirilgan san'at muktablari o'quvchilari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarining mustaqil fikrlash va innovatsion yechimlarni yaratish qobiliyatini oshiradi, kasbiy mahoratni mustahkamlashda interfaol metodlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni rag'batlaniradi va ta'lif jarayonini yanada samarali va natijaviy qiladi.

Kelgusida ixtisoslashtirilgan san'at mакtablarida kreativ yondashuv asosida ta'lif dasturlarini yanada takomillashtirish va metodik tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2018). O'zbekistonning rivojlanish strategiyasi – 2030 yilgacha.
2. Shoniyozov, A. (2019). Arxitektura va dizayn asoslari.
3. Umarova, N. T. (2020). “Arxitektura dizaynidagi ijodiy ko'nikmalarini shakllantirish: nazariy asos va amaliyot.” O'zbekiston san'ati va dizayn jurnali, 4(3), 45-52.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4688-son qarori. (2020).
5. Kamolov, B., Sodiqov, X. (2021). *O'quvchilarda arxitektura va dizayn bo'yicha amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi*.
6. Kurbanov, U., Qodirova, S. (2022). “Maktab ta'limida arxitektura va dizayn yo'nalishlarini rivojlantirish tajribalari.” *Arxitektura va qurilish ilmiy jurnali*, 5(1), 28-35.
7. Benedikt, M. (1984). *For an Architecture of Reality*. New York: Lumen Press.
8. Ching, F. D. K. (2015). *Architecture: Form, Space, and Order*. John Wiley & Sons.
9. Salingaros, N. A. (2006). *A Theory of Architecture*. Solingen: Umbau-Verlag.
10. <https://art-academy.uz/>
11. <https://ridm.uz/>
12. <https://rismi.uz/>
13. <https://edu.uz>
14. <https://www.archdaily.com>